INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARI INFRATUZILMA FAOLIYATINI YAXSHILASH OMILLARI

Qobulov Ozodbek O‘ktamboy o‘g‘li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti Ijtimoiy-Iqtisodiy fanlar fakulteti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti
Email: qozod5500@gamil.com
Tel:+998 93 922 55 00

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion yondashuvlar asosida xususiy tibbiyot muassasalari infratuzilma faoliyatini yaxshilash masalalari va omillari yoritilgan.
Kalit so‘zlar. Tibbiyot, tibbiyot muassasasi, infratuzilma, omil, tashqi omil, muhit.
Аннотация. В статье рассматриваются проблемы и факторы совершенствования инфраструктуры частных медицинских учреждений на основе инновационных подходов.
Ключевые слова: Медицина, лечебное учреждение, инфраструктура, фактор, внешний фактор, окружающая среда.
Abstract. This article examines the challenges and factors involved in improving the infrastructure of private medical institutions using innovative approaches.
Keywords: Medicine, medical institution, infrastructure, factor, external factor, environment.

Kirish.

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida xususiy tibbiyot muassasalari har bir hududda faoliyat olib boradi. Bu borada uning iqtisodiy faoliyatiga turli omillar ta’sir qiladi. Ushbu omillar xususiy tibbiyot muassasalari infratuzilma faoliyatini yaxshilash uchun tashqi muhit omillari sifatida alohida ajratilib, uning tarkibi uzoq va yaqin muhit omillariga ajratiladi. “Yaqin” muhit omillari tarkibiga mijozlar, yetkazib beruvchilar, raqobatchilar, davlat tomonidan tartibga solish, kasaba uyushmalari, savdo uyushmalari va boshqalar kirib, ular bevosita xususiy tibbiyot muassasasi faoliyatiga ta’sir qiladi. Ushbu omillar xususiy tibbiyot muassasalari ish samaradorligini oshiradi yoki kamaytiradi, shuningdek o‘z maqsadlariga erishishni yaqinlashtiradi yoki uzoqlashtiradi. Bu borada xususiy tibbiyot muassasasi tashqi muhitining ushbu qismi bilan faol hamkorlik qiladi va menejerlar esa ularni qulay yo‘nalishda o‘zgartirish maqsadida uning parametrlariga ta’sir qilib, yaqin joyni boshqarishga harakat qiladilar [1].

“Uzoq” muhit omillari - xususiy tibbiyot muassasasi faoliyatiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan omillar to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, ya’ni bilvosita hisobga olinadi. Makroiqtisodiy omillar, qonunchilik talablari, davlat yoki mintaqaviy siyosatdagi o‘zgarishlar, ijtimoiy va madaniy xususiyatlar shular qatoriga kiradi. Menejerlar

ISSN 3030-3907

uzoq muhit parametrlarini boshqara olmaydi. Ammo, ularning o‘zgarishi tendensiyalarini kuzatishi va ularni rejalarida hisobga olishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI. angi moliyalashtirish sharoitida sog‘liqni saqlash tizimi sog‘liqni saqlash tashkilotlarining raqobatbardoshligini oshirish jarayonida bir qator dolzarb muammolarga duch kelmoqda. Ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tibbiyot muassasalarining raqobatbardoshligini baholash bo‘yicha yagona metodologik yondashuv hali shakllanmagan. Taklif etilgan ko‘plab usullar sog‘liqni saqlash tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini, xizmatlarning ijtimoiy ahamiyatini va tibbiyot tashkilotining faoliyat doirasidagi murakkabliklarni to‘laqonli hisobga olmaydi. Xususan, raqobatni baholashning umumiy iqtisodiy modellariga tayanish tibbiyot xizmatlariga xos risklar, inson kapitalining ustuvorligi, texnologik murakkablik hamda xizmat sifati kabi ko‘rsatkichlarni aks ettira olmaydi. Ko‘pgina xorijiy tadqiqotlarda raqobatning baholanishi uchun DEA, SFA, KPI, “Balanced Scorecard”, Porterning “beshta kuch” modeli kabi metodlar qo‘llangan bo‘lsa-da, ularning sog‘liqni saqlash faoliyatiga to‘liq mos kelmasligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, sog‘liqni saqlash tizimida moliyalashtirish mexanizmlarining o‘zgarishi (DRG, kapitasiya, aralash to‘lov tizimlari) tibbiyot muassasalarining boshqaruv strategiyalari, xizmatlar sifati va resurslardan foydalanish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi ilmiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan. Biroq amaldagi tahliliy yondashuvlarning aksariyati iqtisodiy, tashkiliy va tibbiy mezonlarning integratsiyalashgan bahosini bera olmaydi. Mazkur holat sog‘liqni saqlash tashkilotlari raqobatbardoshligini baholashda kompleks yondashuv, ya’ni xizmat sifati, texnologik rivojlanish, kadrlar salohiyati, moliyaviy barqarorlik va boshqaruv samaradorligini birlashtirgan metodologiyani ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Adabiyotlar sharhi tibbiyot muassasalari faoliyatini baholash uchun sektorning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan, tizimli va integratsiyalashgan baholash mezonlari yetarli darajada shakllanmaganini tasdiqlaydi. (Gaynor M, 2006; Marjolein Dieleman, Barend Gerretsen, Gert Janvander Wilt, 2009; Christodoulou M, 2016).

Zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimi texnologik rivojlanish, farmatsevtika bozorining kengayishi va aholining xizmat sifati haqidagi talablarining ortib borishi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, ko‘plab mamlakatlar kabi O‘zbekiston ham tibbiyot muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishda bir qator tizimli muammolarga duch kelmoqda. (Raximbekova A.E., Seititkaziyeva A.M., 2014; Gertsik Yu.G. 2017).Oxirgi o‘n yillikda sog‘liqni saqlash tizimi texnologiyalarning keskin rivojlanishi, diagnostika va davolash usullarining modernizatsiyasi, farmatsevtika bozorining kengayishi hamda aholining sifatli tibbiy xizmatga bo‘lgan talabi ortib borishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon sog‘liqni saqlash tashkilotlari raqobatbardoshligini oshirish uchun boshqaruvning yangi

ISSN 3030-3907

tamoyillarini, xizmatlar sifatini baholashning zamonaviy metodlarini joriy etish zaruratini kuchaytirmoqda.

O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida ham raqobatbardoshlikni oshirish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash va boshqaruv samaradorligini ko‘tarish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda (Raximbekova, Seititkaziyeva, 2014). Gertsik (2017) tibbiyot muassasalarining samarali ishlashi uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy manbalar sog‘liqni saqlash tizimida raqobatbardoshlikni oshirish ko‘p omilli va murakkab jarayon ekanini, uni baholashda iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy va innovatsion ko‘rsatkichlarning kompleks yondashuv asosida tahlil qilinishi zarurligini ko‘rsatadi. Biroq ilmiy adabiyotlarda sog‘liqni saqlash tashkilotlari raqobatbardoshligini baholashning yagona model va metodlari yetarlicha ishlab chiqilmagan bo‘lib, bu yo‘nalishda qo‘shimcha ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Xususiy tibbiyot muassasasi faoliyatiga ta’sir qiluvchi uzoq muhit omillari an’anaviy ravishda ijtimoiy-madaniy, texnologik, iqtisodiy va siyosiy-huquqiy kabi turlarga bo‘linadi. Xususiy tibbiyot muassasalari faoliyatiga bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-madaniy omillar orasida quyidagi omillarni alohida ajratib ko‘rsatish lozim:

- turmush darajasi (u qanchalik baland bo‘lsa, muassasada xizmat ko‘rsatish sifatiga qo‘yiladigan talablar yuqori bo‘ladi);
- jamiyatdagi asosiy qadriyatlar: sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va boshqalar;
- demografik jarayonlar (aholi sonining ko‘payishi xususiy tibbiyotga bo‘lgan talabni oshiradi);
- xususiy tibbiyot tashkiloti faoliyati uchun texnologik omillar: yangi texnologiyalar va zamonaviy uskunalar.

Tashqi muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan xususiy tibbiyot muassasalarining vazifasi narx, sifat va vaqt jihatidan yaxshi zarur resurslar bilan ta’minlaydigan yetkazib beruvchilarni tanlash hisoblanadi [2]. Bu holatda yetkazib beruvchilar bilan o‘zaro munosabatlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Hamda xususiy tibbiy muassasalari uchun import resurslarini qabul qilib olish masalalari dolzarb masala hisoblanadi.

Sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun xususiy tibbiyot muassasalari o‘z infratuzilmalari tarkibini takomillashtirish lozim. Bu esa xilma xil tibbiyot muassasalarining samarali faoliyat yuritishi bilan belgilanadi. Shundan kelib chiqib, xususiy tibbiyot muassasalarining faoliyat ko‘rsatishi infratuzilma

ISSN 3030-3907

tarmoqlariga bog‘liq bo‘ladi. Ularning tarkibiga raqobatga asoslangan boshqa tibbiyot muassasalari va shifoxonalardagi ba’zi holatlar ta’sir ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval

2024 yil holatiga ko‘ra Xorazm viloyatidagi tibbiyot muassasalari infratuzilmalari tarkibi [4]

№	Shahar va tumanlar nomi	Tibbiyot muassasalari *(davlat, hususiy, DXShlar)*					
		Jami soni	Shundan				
			Davlat	DXSh	Xususiy	koyka soni	qatnov soni
1	Urganch shahar	178	8	1	169	783	749 290
2	Xiva shahar	42	5	0	37	291	270537
3	Bog‘ot tumani	38	15	0	23	441	547231
4	Gurlan tumani	49	13	0	36	519	511713
5	Qo‘shko‘pir tumani	43	16	0	27	486	625057
6	Urganch tumani	58	14	2	42	536	785396
7	Xazorasp tumani	49	16	0	33	439	1024311
8	Tuproqqal’a tumani	15	7	0	8	143	217822
9	Xonqa tumani	47	14	0	33	480	801272
10	Xiva tumani	30	14	0	16	540	679 761
11	Shovot tumani	45	14	0	31	483	620292
12	Yangiariq tumani	35	12	1	22	253	323001
13	Yangibozor tumani	24	10	0	14	262	243309
	Viloyat bo‘yicha	**686**	**191**	**4**	**491**	**8599**	**7823369**

Mazkur 1-jadvalga asosan, Xorazm viloyati bo‘yicha jami 686 ta tibbiyot muassasasi faoliyat ko‘rsatadi. Ulardan 191 tasi davlat muassasalari, 4 tasi davlat xususiy sheriklikka asoslangan muassasalar, 491 tasi xususiy tibbiyot muassasalarini tashkil etadi. Jami koykalar soni esa 8599 tani, qatnovlar soni esa 7823369 tani tashkil etadi. Bundan ko’rinadiki, Xorazm viloyatida sog‘liqni saqlash tizimi so‘nggi yillarda texnologik jihozlash, dori vositalari ta’minoti va zamonaviy diagnostika uskunalarining joriy etilishi hisobiga rivojlanmoqda. Biroq aholining xizmat sifati bo‘yicha talablarining ortishi, bozor tamoyillariga mos

ISSN 3030-3907

boshqaruvning yetarli darajada shakllanmaganligi hamda tibbiy resurslar taqsimotidagi nomutanosiblik tibbiyot muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishda muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun Xorazm viloyati sog‘liqni saqlash tizimida xizmat sifati, boshqaruv samaradorligi va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha kompleks yondashuv zarur.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Shular bilan birgalikda, innovatsion yondashuvlar asosida xususiy tibbiyot muassasalari infratuzilmasi faoliyatini rivojlantirish va ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish mumkin. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini raqamlashtirish hamda boshqaruv samaradorligini kuchaytirish infratuzilmaning barqaror ishlashiga xizmat qiladi. Bunda viloyat miqyosida ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi va o‘sish sur’atlari, shuningdek, tibbiyot sektorining umumiy iqtisodiy dinamikadagi ulushi muhim ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi (2-jadval).

2-jadval

Iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi va o‘sish sur’ati haqida ma’lumot (oldingi yilga nisbatan, % da) [6]

Xizmat turlari	2011 y.	2013 y.	2015 y.	2017 y.	2019 y.	2021 y.	2023 y.
Xizmatlar – jami, mlrd. so‘m	**1066,0**	**1788,0**	**2548,6**	**3645,5**	**5763,3**	**8348,1**	**13254,7**
tibbiyot sohasidagi xizmatlar, mlrd. so‘m	9,5	20,5	33,1	62,1	103,6	171,2	271,9
Xizmatlar – jami, foizda	**124,6**	**121,8**	**115,4**	**108,2**	**113,4**	**118,9**	**114,5**
tibbiyot sohasidagi xizmatlar, foizda	128,9	140,5	113,9	120,4	114,3	130,3	112,2

Mazkur 2-jadvalga asosan, Xorazm viloyati bo‘yicha jami tibbiy xizmatlar ko‘rsatish hajmi 2011 yilda 9,5 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa-da, 2023 yilga kelib esa, ushbu ko‘rsatkich qiymati 271,9 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan. Shuningdek, ushbu tibbiyot sohasidagi xizmatlarning ulushi mos ravishda ushbu yillar uchun 128,9 vva 112,2 foizlarni tashkil etib, 16,7 foizga kamaygan.

Tahlillar shuni anglatadiki, xususiy tibbiyot muassasalari faoliyatining samaradorligi, avvalo, ularning mijozi bo‘lgan aholining ehtiyoj va kutgan natijalariga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan iste’molchilarning tibbiy xizmatlarni tanlashiga ta’sir etuvchi omillarni tizimli o‘rganish va ular asosida boshqaruv qarorlarini shakllantirish zarur. Bu borada iste’molchilarning xohish-istaklariga

ISSN 3030-3907

ta’sir qiluvchi omillar ahamiyatlilik darajasiga ko‘ra quyidagi uch guruhga ajratishni taklif etamiz:

1. Birinchi guruh eng muhim yoki muhim quyidagi afzalliklarni o‘z ichiga oladi:

- shifokorlarni kasbiy mahorati;
- zamonaviy uskunalar;
- davolashning kafolatlangan natijasi;
- tezkor xizmat ko‘rsatish;
- xodimlarning do‘stona munosabati.

2. Ikkinchi guruh mijozlarga ma’qul bo‘lgan quyidagi afzalliklardan iborat bo‘ladi:

- shifokor bilan aloqa qilishning optimal vaqti;
- xizmatlarni qulay vaqtda olish;
- davolashning ochiqligi;
- ixtisoslashgan shifokorlar bilan uchrashuvni kutishsiz bajarilishi.

3. Uchinchi guruh eng kam muhim bo‘lgan quyidagi afzalliklarni o‘z ichiga oladi:

- ro‘yxatga olish bo‘limining aniq soatlari;
- tibbiyot sohasi laboratoriyalari;
- qulay interer va dizayn.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, Xorazm viloyati sog‘liqni saqlash tizimida xususiy tibbiyot muassasalari raqobatbardoshligini oshirish uchun xizmatlar sifatini yaxshilash, innovatsion yechimlarni joriy etish, bemorlar ehtiyojiga moslashgan xizmat paketlarini taklif qilish va boshqaruvni optimallashtirish muhim omillardan hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa shuki, sog‘liqni saqlash infratuzilmasining rivojlanish darajasi, aholining umumiy salomatlik madaniyati va sog‘liqni saqlash tizimiga bo‘lgan ishonchi tibbiy xizmatlar samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ichki (demografik, ijtimoiy-iqtisodiy) hamda tashqi (global pandemiyalar, innovatsion texnologiyalar, xalqaro standartlar) omillarning ta’sirini kompleks boshqarish orqali sog‘liqni saqlash tizimida yuqori natijalarga erishish mumkin. Bugungi kunda aholiga sifatli, adolatli va hamyonbop tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishni ta’minlash maqsadida universal tibbiy qamrov tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni amalga oshirilmoqda. Yuqorida keltirilgan fikrlarni hisobg olib quyidagi takliflarni beramiz:

Sog‘liqni saqlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish: tibbiyot muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, raqamli xizmatlarni kengaytirish va shoshilinch tibbiy yordam tizimini takomillashtirish;

ISSN 3030-3907

Universal tibbiy qamrovni kengaytirish bo‘yicha milliy strategiyani kuchaytirish: barcha toifadagi aholining teng va arzon tibbiy xizmatlardan foydalanish imkonini kafolatlaydigan huquqiy-me’yoriy bazani mustahkamlash;

Kadrlar salohiyatini oshirish: shifokorlar va tibbiyot xodimlari uchun doimiy malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish, malaka darajasiga qarab rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish;

Narxlar va xizmat sifatida shaffoflikni ta’minlash: tibbiyot muassasalarida xizmat narxlari ochiqligini kuchaytirish, bemorlar uchun qiyosiy baholash tizimini joriy etish;

Profilaktik tibbiyotga e’tiborni kuchaytirish: aholining salomatlik madaniyatini oshirish, erta diagnostika va sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha keng ko‘lamli axborot-targ‘ibot ishlarini yo‘lga qo‘yish;

Davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish: xususiy tibbiyot muassasalari uchun soliq imtiyozlari va investitsion qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish orqali xizmatlar tarmog‘ini kengaytirish;

Samaradorlik monitoringini kuchaytirish: sog‘liqni saqlash tizimidagi barcha jarayonlarni ekonometrik tahlil asosida baholash, xizmat sifati ko‘rsatkichlarini muntazam o‘lchab borish.

Ushbu jarayonning muvaffaqiyati, avvalo, tibbiyot muassasalarida mavjud moddiy-texnik baza, kadrlar salohiyati va boshqaruv mexanizmlarining takomillashuviga bog‘liq. Shuningdek, aholining sog‘liqni saqlash tizimi xizmatlaridan foydalanishi, narxlarning maqbulligi va xizmat sifati bo‘yicha shaffoflikni ta’minlash ham tizim samaradorligini oshiruvchi muhim omillardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Зуб А.Т. Стратегический менеджмент. - М.: Юрайт, 2014. - 415 с.
2. Велиева А.Д. Влияние факторов внешней среды на деятельность частной медицинской организatsii. / А.Д.Велиева. Текст: непосредственный // Молодой ученый, 2015, №13 (93). - с. 366-368. URL: https://moluch.ru/archive/93/20048/ (дата обращения: 02.07.2024).
3. Биннер Х. Управление организациями и производством: От функционального менеджмента к процессному. / Пер. с нем. - М.: Альпина Паблишерз, 2010. - 282 с.
4. https://xorazmstat.uz/uz/nashrlar/press-relizlar
5. Xorazm viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi ma’lumotlari.
6. https://xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2

ISSN 3030-3907